



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI IJOBIY
FIKRLASHGA O'RGATISH.**

Allamurodova Sayyora

Termiz Davlat Pedagogika Instituti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakultet
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs 22-13-guruh talabasi

Saida Isakovna

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili
kafedrasi o'qituvchisi pedagogika fanlari falsafa fanlari doktori(PhD) Tursunova*

Email: tursunova@mail.ru

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijobiy fikrlashga o'rgatish, mashg'ulotlarda shakllantirish pedagogika muammo sifatida takomillashtirish, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, darsda o'qilgan bilim va ko'nikmalarni o'quvchilarga tushunish, asosiy mazmun va g'oyani anglab yetishi uchun taxhil, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ijodiy fikrlash, bilim olish, adabiyot va san'at, mustaqil fikrlash, yangilik yaratish, ochiq savollar, innovatsion, muammolar, tafakkurini rivojlantirish.

Обучение учащихся позитивному мышлению в начальных классах.

Абстрактный: В статье говорится о обучении учащихся младших классов позитивному мышлению, совершенствовании формирования на уроках как педагогической задаче, развитии творческого мышления учащихся, использовании таких логических методов, как анализ, сравнение и обобщение, для того, чтобы учащиеся осмыслили полученные на уроке знания и умения, поняли основное содержание и идею.

Ключевые слова: Развитие творческого мышления, обучение, литература и искусство, самостоятельное мышление, новаторство, открытые вопросы, новаторство, проблемы, мышление.

Teaching students to think positively in primary grades.

Abstract: the article talks about teaching elementary school students to positive thinking, improving formation in classes as a pedagogic problem, developing





students' creative thinking, using logical methods such as analysis, comparison, and generalization in order for students to understand the knowledge and skills learned in the lesson, to understand the main content and idea.

Keywords: Developing creative thinking, learning, literature and art, independent thinking, innovation, open questions, innovative, problems, thinking.

Kirish: O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu masalada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalasi muhim o'rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xalqimizning intellektual va ma'naviy salohiyati mamlakatimizning eng katta boyligi hisoblanadi[1]. Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, - dedi Shavkat Mirziyoyev yig'ilishda. - Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

Yaqinda bo'lib o'tgan yirik tadbirlar - davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston yoshlarining birinchi forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviyat yo'nalishidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Chunki bu borada yechimini kutib turgan, o'zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar ko'p. Milliy g'oyaning mohiyatini to'liq anglab yetmagan, eski mafkurani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar ham yo'q emas. Shu bois Prezident mamlakatimiz mafkurasining asosiy g'oyasini ta'kidlab o'tdi:

- Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, - dedi davlatimiz rahbari. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashini shakllantirish, aynan boshlang'ich sinfdan, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mustaqil fikrning mavjudligi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'quvchilarning erkinlik darajasiga bog'liq. Mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun o'quvchilarning individual va jomoaviy darajada erkinligiga erishish zarur. Chunki mustaqil fikrlash shaxsning hislati sifatida har qanday faoliyat turida individual va jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori kursatkichni ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib qoladi. Shu bilan birga, mustaqil fikrlash jamiyat insonga yaratib bergan imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va inikosidir. Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va





umumlashgan xolda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o'zida mujassamlashtiradi. Falsafa materiya bilan bog'liqlikda fikrlash yordamida dunyoni bilishning yo'llari va imkoniyatlarini o'rganadi. Formal mantik fikrlashning asosiy shakllari (tushuncha, xukm, xulosa)ga etibor qaratadi. Fikrlashga oid tadqiqotlarning sotsiologik jihati turli jamiyatlarning ijtimony tuzilishi bilan bog'liqlikda fikrlashning tarixiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish bilan tavsiflanadi.

Boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda, keng lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob'ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so'zlar bo'lsa). Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich ta'lim insonning kelajakdagi bilim olish jarayonining poydevorini yaratadi. Bu bosqichda bolalarning nafaqat bilim olishi, balki mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy fikrlash nafaqat adabiyot va san'at kabi sohalarda, balki matematika, fan va hayotiy muammolarni hal qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun turli usullar va materiallardan foydalanishlari kerak. Ijodiy fikrlash bu-odatiy yondoshuvlardan chiqib, yangi va noodatiy yechimlarni topaolish qobiliyatidir. U bolalarda quyidagi jihatlarni rivojlantiradi:

-mustaqil fikrlash-muammolarga mustaqil ravishda javob topish qobiliyati shakllanadi;

-muammolarni hal qilish har xil vaziyatlarga yangicha yondoshuvlar bilan yechim topaolish qobiliyati rivojlanadi;

-innovatsion yondashuv-turli fanlar bo'yicha yangilik yaratish va qiziqarli g'oyalarni ilgari surish ko'nikmasi xosil bo'ladi;

-o'ziga ishonch-o'z fikrlarini ifoda etish va himoya qilishga ishonchi ortadi;

Boshlang'ich sinflarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari:

1. Savol-javob va ochiq savollar berish;

O'quvchilarga faqat aniq javob talab qiladigan savollar emas, balki ochiq savollar berish muhimdir.

Masalan: "Agar yerda tortishish kuchi bo'lmasa nima bo'ladi?"

-“Quyosh ertalab emas, kechasi chiqsa dunyo qanday bo'lardi? ”





Bu kabi savollar o'quvchilarning tasavvurini kengaytirib, mustaqil fikrlashga undaydi.

2. Rolli va ijodiy o'yinlardan foydalanish:

Bolalar o'yin orqali yangi bilimlarni tez o'zlashtiradilar.

Masalan:-hikoyani davom ettirish o'yini-o'qituvchi bir hikoyani boshlab beradi, bolalar esa o'z versiyalarini aytadilar.

-“Narsalar qanday gapiradi?”-bolalar atrofdagi buyumlarni tasavvur qilib, ular qanday gapirishlarini tasvirlaydi.

3. Rasm chizish va vezual tasvirlash.

Bolalar ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun rasm chizish samarali usuldir. Masalan - “Ertangi kunni qanday tasavvur qilasan?” mavzusida rasm chizish.

-Oddiy shakllardan foydalanib, yangi obrazlar yaratish. Bu usul tasavvur qilish qobiliyatini oshiradi va ijodkorlikni rivojlantiradi.

4. Muammolarni turlicha hal qilishga o'rgatish. Bolalarga bitta mammoni turli xil usullar bilan hal qilish imkoniyatini berish kerak.

Masalan:

-matematik misollarni turli usullar bilan yechish. Biror muammoga turli vaziyatlarda yechim topish. Bu o'quvchilarda muammolarni har tomonlama ko'rib chiqish va noodatiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi.

5. Guruhda ishlash va munozaralar tashkil qilish. Bolalar guruh bo'lib ishlash orqali o'z fikrlarini ifoda etish va boshqalar bilan baxslashishni o'rganadilar.

Masalan:

-“Eng yaxshi ixtiro nima?” mavzusida munozara uyushtirish.

-“kelajakdagi maktab qanday bo'lishi kerak?” degan mavzuda guruh bilan loyiha yaratish. Bu usul o'quvchilarning fikr almashish, muhokama qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa shuki, ijodiy fikrlashni rivojlantirish-zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Boshlang'ich sinflarda ijodiy fikrlashga e'tibor qaratish kelajakda bolalarning intellektual salohiyatini oshiradi. Ularni hayotdagi muammolarga noodatiy yechim topaoladigan shaxsga aylantiradi. O'qituvchilar ochiq savollar berish, ijodiy o'yinlar tashkil qilish, muammolarni turlicha hal qilish va guruh ishlariga jalb etish orqali o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishlari lozim. Shu tarzda ijobiy fikrlovchi, mustaqil va innovatsion fikrlaydigan avlod tarbiyalanadi.





Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev nutqi. «Ta’lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi. <https://yuz.uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi/>
2. Sh.M.Mirziyoyev nutqi. Maktablarda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi/ <https://president.uz/uz/lists/view/6622>
3. S.I.Tursunova The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. Eurasian Research Bulletin, 2022.
4. S.I.Tursunova Pedagogical bases of nationalization of school education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3 (02), 456–461.
5. Турсунова, С. И. (2023). Причины выбора модели внеучебной деятельности по развитию устной речи младших школьников.
6. Tursunova, S. (2024). Innovatsion yondashuv asosida boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining og ‘zaki nutqini rivojlantirishning asosiy mazmuni. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(10), 176-185.
7. Ismatova, N., & Tursunova, S. I. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH, TILSHUNOSLIK USLUBIY MUAMMO SIFATIDA. Interpretation and researches, 2(1).
8. Allaberganova, Y., & Tursunova, S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH. Interpretation and researches, 2(1).
9. Hikmatov, I., & Tursunova, S. (2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarini ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashning imkoniyatlari. Interpretation and researches, 2(1).
10. Турсунова, С. И. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНОФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИҚТИСОДИЙ ТАРБИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Scientific Impulse, 1(4), 397-399.
11. Турсунова, С. И. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНОФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЭСТЕТИК ТАРБИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Scientific Impulse, 1(4), 393-396
12. Tursunova, S. I. (2024). SCIENTIFIC THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF ORAL SPEECH IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. *World of Scientific news in Science*, 2(6), 137-143.
13. Yigitali Jo’ra o’gli, J., Ulug’bek, B., & Tursunova, S. I. (2025). BOSHLANG‘ICH SINIFDA GAP USTIDA ISHLASHDAGI IZCHILLIK. *SYNAPSES: Insights across the disciplines*, 2(1), 136-139.





14. Abzairov, T. Y., & Ibragimov, T. I. (2024). METHODS AND TECHNIQUES OF TEACHING RUSSIAN LANGUAGE. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 2(1), 71-84..

